

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№10-SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, OKTABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrayevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muvini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduxayidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.n., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Elektron nashr 661 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-oktabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI.....	7
Duschanov Alisher Sherzod o‘g‘li	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА: СЕЗОННОСТЬ И МИНИМИЗАЦИЯ ЕГО НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ	14
Муминов Нозим Гаффарович, Қодирзода Фазлиддин Садриддин, Гусейнов Хафиз Фехруз Оғлу, Хубони Сорбон	
О‘ЗBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH.....	21
Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li	
О‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	28
Kadirova Maraljan Matyakubovna	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATI NATIJADORLIGI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH.....	38
Muminov Dilmurod To‘xtasinovich	
О‘ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI UCHUN AKSIZ SOLIG‘I BIRXILLASHTIRILGAN STAVKALARINING SANOAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI	45
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro‘zumurat o‘g‘li, Otabekov Otajon G‘ayrat o‘g‘li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	51
Rasulov Jamshid Karimovich	
О‘ZBEKISTONDA BIG DATA VA SUN‘IY INTELLEKT (AI) YORDAMIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY	66
Saurova Inobat Ikramovna, Kadirbergenova Shaydo Umirbekovna	
О‘ZBEKISTON QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	73
Temirov Azizbek Voit o‘g‘li	
UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI	87
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH	98
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	104
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
О‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALANISH DARAJASI TAHLIL QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Ibragimov Bahrom Bahodirovich	
IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH.....	117
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	124
Alimov Muhammadbobur Ibragimjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ «УМНОГО ГОРОДА» В УПРАВЛЕНИЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ	131
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли	

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	141
Ортикхужаева Юлдуз Азатовна	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI.....	151
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI.....	157
Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING ASSORTIMENT SIYOSATI VA UNI BOSHQARISHGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	163
Boboxo'jayev Baxtiyor Nazirxo'jayevich	
QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITLARI.....	170
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ORQALI TALABNI TAHLIL QILISHGA USLUBIY YONDASHULAR.....	182
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА.....	189
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSİYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	198
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	207
Karrieva Yakutjan Karimovna	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	214
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
FRANCHAYZING VA KLASSTER YONDASHUVI SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI.....	225
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ELEKTRON TIJORATDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	231
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI.....	238
Sharipov Rasulbek Siddiqovich	
PARKENT TUMANIDA OLTIN BEL TOG' KURORTINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	246
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Fatema Nabizada Javid	
MINTAQADA KLASSTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO'LLASH MASALALARI.....	260
Kadirov San'at Yuldashevich	
AGROKLASSTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	266
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	273
Saatova Lolakhon Ergashevna	
HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH.....	281
Salayeva Lobar Ulug'bek qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI.....	290
To'rayev Sardorbek To'rayevich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	297
Turayev Og'abek Kaxramonovich	

TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODELI SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI	305
Radjabov Bunyod Madirimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY PUL OQIMLARI VA STRATEGIK MARKETING INTEGRATSIYASI.....	312
Masharipova Shahlo Adambaevna	
EKSPORT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY MEXANIZMLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	320
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	328
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	336
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SUN'IY INTELLEKT VA ANALITIK PLATFORMALAR YORDAMIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	345
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
BARQAROR MAHALLANI REJALASHTIRISHDA AQLLI MAHALLA TIZIMI IMKONIYATLARI.....	356
Qulmatova Sayyora Safarovna	
OLIY TALIMGA TALABALARNI JALB ETISHNING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI	362
Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	
BANK MENEJMENTIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISH (CRM) TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	369
Kuliev Naim Xalimovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING IJTIMOY TARMOQLARDAGI REYTINGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	382
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
MINTAQAVIY XIZMATLAR SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MENEJMENT SIFATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	388
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
FRANCHAYZING BRENDLARI UCHUN "BREND" KONSEPSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALARI.....	399
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	410
Turayev Og'abek	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI	418
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	427
Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MEXNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	436
Yusupova Dildora Turadjanovna, Musayev Shavkatjon Kayumjonovich	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH	441
Jumayev Shuxrat	
IMPROVING CONSUMER RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN UZBEKISTAN'S AUTOMOBILE DELIVERY SYSTEM: LEGAL FRAMEWORKS AND DIGITAL TRANSFORMATION DIRECTIONS	450
Raupov Abdurahmon Ilhomovich	
АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ НА ТУРИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК КАРАКАЛПАКСТАНА	457
Хошимова Камилла Навфал кизи	
ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA LEAN MENEJMENT TAMOIYILLARI.....	473
Bakayeva Mohira Axrorovna	

TURIZMDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	484
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH..	498
Djumanov Sayitmurod Alimbekovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF BANK ASSET MANAGEMENT: LESSONS FROM THE EU DIGITAL FINANCE STRATEGY FOR UZBEKISTAN (JEAN MONNET MODULE)	505
Shirnova Shokhsanam	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	511
С. Х. Халиков	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ: ТЕНДЕНЦИИ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ (ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА)	518
Кайыбеков Парухат Коньсбаевич	
BANK SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: FINTECH YECHIMLARI VA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH INNOVATSIYALARI.....	525
Rasulov Nuriddin Abdullayevich, Axmedova Nodira Abdurashid qizi	
UZUM YETISHTIRUVCHI KICHIK VA O'RTA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI.....	530
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	541
Mamatkulova Nadira Makkamovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI	555
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR.....	564
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
SAVDO-MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRUVCHI MUHIM OMIL	575
Soliyev Axmadjon	
TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNINING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI	583
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH	591
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA TURAR-JOY KO'CHMAS MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	601
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	610
Avazov Ilhom Ravshanovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	618
С.Х. Халиков	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLARGA MOLIYAVIY YORDAM KO'PAYTIRISH	625
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	631
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	642
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	653
Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna	

IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Mamatkulova Nadira Makkamovna

TDIU, mustaqil izlanuvchisi, dotsent

E-mail: 2025nodi@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlariga ta’sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Ichki bozor hajmi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursining barqarorligi, foiz stavkalari, tashqi qarz miqdori, siyosiy va huquqiy barqarorlik, davlat boshqaruvi sifati, soliq siyosati hamda institutsional infratuzilma kabi omillarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta’siri baholangan. Tahlil natijalari xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonlarini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, inflyatsiya, valyuta kursi, siyosiy barqarorlik, soliq siyosati, mulk huquqi, davlat boshqaruvi, institutsional omillar.

Аннотация

В статье системно проанализированы основные факторы, влияющие на механизмы привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. Оценено воздействие таких факторов, как объём внутреннего рынка, уровень инфляции, стабильность валютного курса, процентные ставки, внешний долг, политическая и правовая стабильность, качество государственного управления, налоговая политика и институциональная инфраструктура. Результаты анализа позволяют выработать практические рекомендации по совершенствованию механизмов привлечения иностранных инвестиций и улучшению инвестиционного климата в стране.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инфляция, валютный курс, политическая стабильность, налоговая политика, права собственности, государственное управление, институциональные факторы.

Abstract

This article provides a systematic analysis of the key factors influencing the mechanisms of attracting foreign direct investment (FDI) into the economy of Uzbekistan. It evaluates the impact of market size, inflation rate, exchange rate stability, interest rates, external debt, political and legal stability, quality of governance, tax policy, and institutional infrastructure on FDI inflows. The findings enable the development of practical recommendations for improving foreign investment attraction mechanisms, enhancing the investment climate, and ensuring economic stability.

Keywords: foreign direct investment, investment climate, inflation, exchange rate, political stability, tax policy, property rights, public administration, institutional

factors.

KIRISH

Jahon miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv tajribasini o'tkazish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, investitsiyalar oqimini jalb qilish bo'yicha raqobat global darajada kuchayib bormoqda.

Investitsiyalar — faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir. Birgalikda shunday investitsiya muhitini yarataylikki, u daromad keltirish bilan birga inson qadrini ulug'laydigan, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlaydigan va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan mustahkam poydevorga aylansin [1]. Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari — chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalaridir [2]. Investitsiya — moliyaviy va moddiy-texnik resurslarni iqtisodiy (daromad, foyda) olish yoki ijtimoiy, ekologik va siyosiy samaraga erishish maqsadida yo'naltiriladigan qo'yilmalardir [3]. Investitsiya — bu daromad olish maqsadida moddiy va nomoddiy obyektlarga joylashtiriladigan qo'yilmalardir [4]. Investitsiya — foyda olish yoki boshqa samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriladigan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, mol-mulklar, pul qiymatiga ega bo'lgan mulkiy va boshqa huquqlardir [5].

Mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi [6].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi: ichki bozor hajmi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursining barqarorligi, foiz stavkalari, tashqi qarz miqdori, siyosiy va huquqiy barqarorlik, soliqqa tortish siyosati, davlat boshqaruvi sifati, infratuzilma darajasi hamda xalqaro integratsiya jarayonlari. Har bir omilning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi ahamiyati turli mamlakatlarda turlicha bo'lsa-da, ularning umumiy ta'sir mexanizmini chuqur o'rganish investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun zarurdir.

O'zbekiston sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki mamlakatda kapital yetishmovchiligi, texnologik yangilanish zaruriyati va eksport salohiyatining cheklanganligi hali ham dolzarb masalalardan biridir. Xorijiy investitsiyalar ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, ishlab

chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni faollashtirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Shu sababli, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish — nafaqat investitsion siyosatning, balki mamlakatning makroiqtisodiy strategiyasining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim. Shuningdek, xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining yuqori bo‘lishi uchun mamlakatda siyosiy barqarorlik, shaffof boshqaruv tizimi, qonun ustuvorligi va mustahkam moliyaviy infratuzilma bo‘lishi zarur. Janubiy Koreya, Singapur, Irlandiya, Polsha va Chexiya aynan ushbu yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli siyosat yuritgan. O‘zbekiston uchun ham bu mamlakatlarning tajribasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar siyosatini takomillashtirishda o‘rnak bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini tushuntiruvchi ilmiy manbalar orasida John H. Dunningning 1993-yilda ishlab chiqqan OLI (Ownership, Location, Internalization) paradigmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Dunning o‘z tadqiqotida investitsiyalarni jalb etish mexanizmini uchta omil — kompaniyaning o‘ziga xos ustunliklari, joylashuv afzalliklari va ichki boshqaruv samaradorligi orqali izohlaydi. Ushbu model mamlakatlar va firmalarning investitsion qarorlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

E. Borensztein, J. De Gregorio va J.-W. Lee tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, biroq bu ta’sir mamlakatdagi inson kapitalining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq. Mualliflar fikricha, malakali ishchi kuchi mavjud bo‘lmagan sharoitda texnologik spilloverlar samarasi past bo‘ladi, ya’ni FDI oqimlarining iqtisodiyotga kiritilayotgan texnologiyalarni o‘zlashtirish imkoniyati cheklangan bo‘ladi.

Magnus Blomström va Ari Kokko o‘z izlanishlarida multmilliy korporatsiyalarning mahalliy firmalarga texnologik va menejment tajribalari orqali ta’sirini o‘rganib, bu jarayonning sanoat tarmoqlari bo‘yicha farq qilishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, samarali spilloverlar uchun raqobatbardosh muhit, infratuzilma va mahalliy innovatsion salohiyat zarur.

Laura Alfaro, Anusha Chanda, Sebnem Kalemli-Ozcan va Selin Sayek tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan moliyaviy tizimlarga ega mamlakatlar FDI dan ancha katta iqtisodiy foyda oladi. Tadqiqotchilar fikricha, moliyaviy bozorlarning chuqurligi xorijiy investitsiyalar oqimini samarali yo‘naltirish va iqtisodiy o‘sishga integratsiya qilish imkonini beradi. Shu bois FDI siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanadi.

Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining so‘nggi hisobotlari ham investitsiya muhiti sifatiga, siyosiy barqarorlikka va biznes yuritish qulayligiga alohida e’tibor qaratadi. Bu manbalar xorijiy investitsiyalar oqimining sektorlar va mintaqalar bo‘yicha notekis taqsimlanayotganini, shuningdek, tartibga solish siyosatlari, soliqlar va investitsiya targ‘iboti tashkilotlarining faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynashini

ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi kompleks yondashuvni talab etadi. Dunning nazariy asoslarini, Borensztein, De Gregorio va Lee tomonidan keltirilgan inson kapitali omilini, Blomström va Kokko tomonidan ko'rsatilgan spillover sharoitlarini, hamda Alfaro va hamkorlarining moliyaviy infratuzilma haqidagi qarashlarini uyg'unlashtirish orqali mamlakat siyosatchilari samarali investitsiya siyosatini shakllantirishlari mumkin.


METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining asosiy kapitalni moliyalashtirishdagi o'rnini baholash uchun iqtisodiy-statistik, qiyosiy hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Jahon banki, UNCTAD va IMFning ochiq ma'lumotlari asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmining takomillashtirilishi ularga ta'sir etuvchi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu omillar va ularning ta'sir doirasi quyidagi ketma-ketlik asosida tahlil qilinadi.

1. Makroiqtisodiy omillar. Mazkur omillar tarkibida iqtisodiy o'sish sur'atlari birinchi o'rinni egallaydi, chunki har qanday investorning o'zga mamlakatga sarmoya kiritishi, eng avvalo, ko'proq foyda olish yoki boylik orttirish maqsadini ko'zlaydi. O'sish sur'atlarining tezligi va barqarorligi ushbu maqsadlarga erishishni ta'minlaydi. O'zbekistonda so'nggi besh yil davomida YAIM hajmi barqaror o'sish sur'atlarini saqlab kelmoqda. Xususan, so'nggi besh yil davomida YAIM hajmi 4,9 foiz bandga o'sib, 2024-yilda 6,5 foizga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich aksariyat rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlaridan (1–4 foizgacha) yuqoridir (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmining o'sish sur'ati (foizda)¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining tegishli yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ichki bozor hajmi ham bevosita xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir ko'rsatadi. "2025-yilning yanvar–aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7,7 million so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 foizga oshgan. Shuningdek, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari faolligi saqlanib qolmoqda. Ularning hissasi 158,3 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, bu umumiy bozor xizmatlari hajmining 54,5 foiziga teng" [7]. Bunday tendensiya O'zbekistonda xizmatlar sohasining barqaror o'sayotganini, aholining iste'mol qobiliyati va tadbirkorlik faolligining yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi.

Inflyatsiya darajasi bevosita chet el investitsiyalarining jalb qilinishiga faol ta'sir etuvchi yoki ta'sirchanligi yuqori bo'lgan eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Yuqori va barqaror bo'lmagan inflyatsiya investorlar uchun risk darajasini oshiradi hamda investitsiyalashdagi xavotirni kuchaytiradi. Yuqori inflyatsiya milliy valyutaning xarid qobiliyatini pasaytiradi, bu esa investor daromadining qadrsizlanishiga olib keladi. Odatda inflyatsiya makroiqtisodiy beqarorlik bilan birga kechadi, bu esa bashoratlash va rejalashtirishni qiyinlashtiradi. Inflyatsiya ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi, xomashyo, ishchi kuchi va boshqa resurslar narxining o'sishi investitsiya rentabelligini kamaytirishi mumkin. Inflyatsiya milliy valyutaning qadrsizlanishiga (devalvatsiyasiga) olib keladi va investor foydasini o'z valyutasiga qaytarishda (repatriatsiyada) samaradorlikni pasaytiradi, ya'ni foydalilik darajasini kamaytiradi. Yuqori inflyatsiya fiskal va monetar siyosatdagi tez-tez o'zgarishlarga sabab bo'ladi, bu esa investitsiya muhitini beqarorlashtiradi. Agar inflyatsiya o'rtacha darajada va bashorat qilinadigan bo'lsa, bu ichki talabning o'sishi va iqtisodiy faollik belgisi bo'lishi mumkin. Yuqori inflyatsiya sharoitida markaziy banklar odatda foiz stavkalarini oshiradi. Bu qisqa muddatli spekulativ kapitalni jalb qilishi mumkin, biroq real (inflyatsiyadan tozalangan) stavkalar past bo'lsa, uzoq muddatli investorlarni cho'chitadi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyaning barqarorligi uning mutlaq darajasidan muhimroqdir. Past va barqaror inflyatsiyaga ega bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar ko'proq bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi. Yuqori inflyatsiya o'zgaruvchanligi hatto past darajadagi inflyatsiya sharoitida ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. "O'zbekistonda 2024-yilda yillik inflyatsiya darajasi 9,8 foizni tashkil etdi. Bu Markaziy bankning dastlabki (8–9 foiz) va yangilangan (9,5 foiz) inflyatsiya prognozidan biroz yuqori hisoblanadi. Ko'rsatkich 2023-yildagi inflyatsiyadan (8,77 foiz) yuqori, lekin 2022-yil (12,25 foiz) va 2021-yildagidan (9,98 foiz) past darajadadir" [8]. Hozirgi paytda O'zbekistonda inflyatsiyaning bevosita xorijiy investitsiyalarga ta'siri sezilarsiz darajada bo'lib, bu chet el investitsiyalarini jalb qilish nuqtai nazaridan ijobiy holatdir.

Valyuta kursi — bevosita xorijiy investorlar uchun mamlakatning jozibadorligini belgilovchi asosiy makroiqtisodiy omillardan biridir. Uning o'zgarishi investitsion xavf darajasiga, sarmoya qiymatiga, foydalilikka hamda kapital kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Valyuta xavflarining oshishi investorlarni kurs beqarorligidan kelib chiqadigan yo'qotishlar xavotiriga soladi. Valyuta kursining o'zgaruvchanligi uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishni

qiyinlashtiradi. Mahalliy valyutada olingan daromad investor valyutasiga aylantirilganda qadrsizlanadi, bu esa investitsiyaning haqiqiy daromadlilikini kamaytiradi. Valyutaning keskin va beqaror pasayishi odatda chuqur makroiqtisodiy yoki siyosiy muammolardan darak beradi, bu esa investorlarni cho'chitadi.

Past inflyatsiya va barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida valyutaning mustahkamlanishi investorlar ishonchini oshiradi. Mustahkam va barqaror valyutada olingan foyda kamroq xavfga ega bo'ladi hamda xorijga o'tkazilishi osonroq kechadi. Biroq valyuta kursining o'sishi mehnat va boshqa resurslarning xorijiy valyutadagi qiymatini oshiradi, bu esa investitsiyalarning samaradorligini kamaytiradi. Qimmat valyuta eksportni qimmatroq qiladi, bu esa tashqi bozordagi raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi va eksportga yo'naltirilgan sohalarga investitsiyalarni kamaytirishi mumkin. Eng muhim jihat — kurs darajasi emas, balki uning barqarorligi va bashorat qilinuvchanligidir. Valyuta nazorati, kapital chiqarishdagi cheklovlar yoki kursni sun'iy ushlab turish kabi choralar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kursining barqarorlashuvi tashqi savdo va bevosita xorijiy investitsiyalarni rivojlantirish, to'lov balansini yaxshilash imkonini beradi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yil davomida dollarning so'mga nisbatan kursi qariyb 582 so'mga (+4,71 foiz) mustahkamlandi. Milliy valyutaning devalvatsiya sur'ati 2023-yilga nisbatan pastroq bo'ldi" [9]. Bu 2024-yil davomida milliy valyutaning 4,71 foizga qadrsizlanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy valyutaning dollarga nisbatan qadrsizlanishi asosiy investitsion hamkor mamlakatlarda ham kuzatilgan jarayondir. Savdo-investitsion hamkorlardagi joriy iqtisodiy tendensiyalar va kutilmalarni inobatga olgan holda, kelgusi yilda ham so'mning real almashuv kursiga nisbatan yuqori bosimlar kuzatilmassligi mumkin.

Foiz stavkalari ham investitsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 2025-yil 23-yanvarda Markaziy bank kengashi asosiy foiz stavkasini yiliga 13,5 foiz darajasida saqlab qolish to'g'risida qaror qabul qilgan edi. Keyinchalik, 2025-yil 24-aprelda stavka 14,0 foizga ko'tarilib, shu darajada ushlab turilgan. 2025-yil mart oyida jismoniy shaxslarga vaqtincha omonatlar bo'yicha stavka 17,2 foizga yetgan. 2025-yil iyul holatiga ko'ra, shaxsiy omonatlarga yillik o'rtacha foiz stavkalari 21–22 foiz oralig'ida bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar yildan-yilga o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha yillik o'rtacha foiz stavkalari 2025-yil iyulda 24–25 foiz atrofida saqlanib turibdi. Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha stavkalar esa 22–23 foiz oralig'ida shakllangan.

Mamlakatning tashqi qarzi ham bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. "O'zbekistonning umumiy tashqi qarzi 2024-yil yakuniga ko'ra 64,1 milliard AQSh dollarini yoki YAIMning 55,7 foizini tashkil qildi. Yil davomida qarz 10,8 milliard dollarga oshdi, bu esa tarixdagi eng katta o'sishdir" [10]. Shu bilan birga, tashqi qarz hajmining ortib borishi xorijiy investorlarda ehtiyotkorlikni kuchaytiradi va faol sarmoya kiritishga to'sqinlik qilishi mumkin.

2. Siyosiy va huquqiy barqarorlik. Siyosiy barqarorlik — xorijiy investitsiyalarni

jalb etishda asosiy omillardan biridir. Xalqaro tajribaga ko'ra, investorlar investitsiya muhitini baholashda iqtisodiy barqarorlik bilan birga siyosiy ishonchlik va huquqiy aniqlikka ham alohida e'tibor qaratadilar. Siyosiy barqarorlik, avvalo, mamlakatda hukumatning qonuniyligi, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi izchilligi, hokimiyat almashinuvi tinch yo'l bilan amalga oshishi, zo'ravonlikning yo'qligi hamda umumiy xavfsizlik muhiti bilan ifodalanadi.

Siyosiy barqarorlikning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ijobiy ta'siri quyidagicha namoyon bo'ladi. Birinchidan, barqaror siyosiy muhit investorlarning mamlakatga bo'lgan ishonchini oshiradi, xavfsizlik hissini kuchaytiradi va kapital yo'qotish xavfini kamaytiradi. Xavf-xatarlar darajasi pasaygani sari investitsiya kiritish osonlashadi. Ikkinchidan, qonun ustuvorligi va mulk huquqi himoyasi ta'minlangan barqaror siyosiy tuzumda qonunlar uzoq muddatli istiqbolda amal qiladi. Mulk huquqlarining himoyalanganligi investorlarni huquqiy xavflardan asraydi. Uchinchidan, davlat siyosatining barqarorligi — soliq, valyuta, tashqi savdo, litsenziyalash va boshqa sohalarda keskin o'zgarishlarning yo'qligi — investorlarga uzoq muddatli strategik rejalar tuzish imkonini yaratadi. To'rtinchidan, korrupsiya va ma'muriy to'siqlarning kamayishi, ochiqlik va shaffoflikning ortishi siyosiy barqarorlikning bevosita natijasidir, bu esa investitsion muhitni yanada jozibador qiladi.

Siyosiy beqarorlik esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat siyosatida izchillik va barqarorlik saqlanishi xorijiy investorlar uchun ishonchli muhit yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. To'polonlar, norozilik namoyishlari, inqiloblar, notinchlik, urush va siyosiy tartibsizliklar investorlarni cho'chitadi; bunday holatlarda yirik infratuzilma obyektlari zarar ko'rishi, ishlab chiqarish jarayoni to'xtab qolishi mumkin. Huquqiy islohotlar va ochiq boshqaruv mexanizmlari xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlaydi va ishonchni oshiradi.

Mulk huquqlarini himoya qilish xorijiy investorlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mulk huquqi — shaxs yoki kompaniyaning mol-mulki ustidan erkin tasarruf etish, undan foydalanish va uni himoya qilish huquqidir. Bu huquqning mavjudligi hamda samarali himoyasi xorijiy investorlarning ishonchini mustahkamlaydi. Mulk huquqlari kafolatlangan davlatlarda investorlar o'z aktivlari va daromadlari xavfsizligiga ishonch hosil qiladilar, bu esa xorijiy kapital oqimini kuchaytiradi. Agar mulk tortib olinishidan yoki davlat tomonidan asossiz musodara qilinishidan himoya bo'lsa, investorlar uzoq muddatli loyihalarga mablag' kiritishga tayyor bo'ladilar. Mulk huquqi himoya qilingan tizimda investorlar o'z daromadlarini erkin konvertatsiya qilib, mamlakatdan chiqarish imkoniga ega bo'ladi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun muhim shartdir. Mustaqil sud tizimi orqali mulkiy nizolar adolatli hal etilishi ham huquqiy aniqlik va ishonchni ta'minlaydi.

Aksincha, mulk huquqlari himoya qilinmagan davlatlarda davlat yoki mahalliy organlar tomonidan investor mulkiga noqonuniy aralashuvlar sodir bo'ladi. Bu holatlar investitsiya oqimini keskin kamaytiradi. Agar milliy lashtirish kompensatsiyasiz yoki noqulay shartlarda amalga oshirilsa, investorlar chiqib ketadi. Sudlarda adolatsiz

qarorlar qabul qilinishi xorijiy sarmoyadorlar uchun mamlakatni xavfli deb hisoblashga sabab bo'ladi. Xorijiy investorlar uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi barqaror hamkorlik, shartnomaviy majburiyatlarning qat'iy bajarilishi uzoq muddatli investitsiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Qonun ustuvorligi — xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirishdagi eng muhim asosdir. Bu tamoyil barcha fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlarining qonunga itoat etishi, sudlarning mustaqilligi va qonunning barcha uchun teng amal qilishini anglatadi. Qonun ustuvorligi ta'minlangan davlatlarda investorlar o'z shartnomalari, mulk huquqlari va kelishuvlariga rioya etilishiga ishonch bildiradilar. Qonunlar keskin o'zgar olmaydi, biznes rejalashtirish osonlashadi, huquqiy nizolar sud orqali hal etiladi. Sudlar faqat qonunga tayanadi, siyosiy bosim yoki mahalliy manfaatlar ularning qarorlariga ta'sir ko'rsatmaydi. Qonun ustuvorligi korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytiradi, bu esa ma'muriy to'siqlar va norasmiy to'lovlarni kamaytirib, biznes yuritish xarajatlarini pasaytiradi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi va qonun ustuvorligi investorlar huquqlarining samarali himoyasini ta'minlab, investitsiya risklarini kamaytiradi.

Samarali davlat boshqaruvi xorijiy investorlar uchun ruxsatnoma va ro'yxatga olish jarayonlarining soddaligi, muomala madaniyati va tashkiliy aniqlik orqali qulaylik yaratadi. Davlat o'z majburiyatlarini bajaradi, siyosiy izchillik va huquqiy barqarorlik ta'minlanadi, bu esa uzoq muddatli investitsion rejalarni tuzish imkonini beradi. Aksincha, zaif boshqaruv, kechiktirilgan hujjatlar va ortiqcha rasmiyatchilik investorlarni cho'chitadi, ishonchsizlik muhitini kuchaytiradi hamda investitsion oqimni kamaytiradi.

Mamlakatda samarali davlat boshqaruvi mavjud bo'lganda litsenziya, ro'yxatdan o'tish, import-eksport hujjatlari va boshqa ruxsatnomalar tez va adolatli tarzda beriladi. Byurokratik to'siqlar kamayadi, bu esa biznes yuritish xarajatlarini pasaytiradi. Yuqori boshqaruv sifati korrupsiya darajasini keskin kamaytiradi, investorlar uchun "norasmiy to'lovlar"siz faoliyat yuritish imkonini yaratadi. Boshqaruv samaradorligi siyosiy barqarorlikka xizmat qiladi — davlat o'z majburiyatlarini bajaradi, shartnomalarga rioya qiladi. Soliq, valyuta va investitsiya siyosatlarida barqarorlik hamda izchillik saqlanadi. Investorlar uzoq muddatli rejalar tuzish imkoniga ega bo'ladilar. Har qanday biznes — mahalliy yoki xorijiy — qonun oldida teng hisoblanadi, investorlar favqulodda qarorlar yoki diskriminatsiyadan xavotirlanmaydi.

Raqamlashtirilgan va soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillar investorlar uchun byurokratik to'siqlarsiz, samarali ish yuritish imkonini beradi. Investorlar ko'p vaqt va mablag'ni keraksiz jarayonlarga sarflashga majbur bo'ladilar. Rasmiy qarorlar norasmiy to'lovlar bilan bog'lanadi, bu esa ishonchsizlik muhitini kuchaytiradi. Qarorlar siyosiy ta'sir ostida qabul qilinadi, sud va nazorat organlari mustaqil faoliyat yuritmaydi, bu esa investorni huquqiy xavf ostiga qo'yadi. Qonun va qoidalar tez-tez o'zgarishi natijasida biznes muhiti noaniq va xavfli holatga aylanadi. Yuqori sifatli davlat boshqaruvi xorijiy investorlar uchun qulay, shaffof va ishonchli muhit yaratadi, zaif boshqaruv esa investitsion xavfni oshiradi, korrupsiya va byurokратиyani kuchaytiradi hamda investitsiya kiritish istagini pasaytiradi.

3. Institutsional omillar. Bu toifadagi omillar qatoriga moliya tizimining rivojlanganlik darajasi, infratuzilma sifati, ishchi kuchining ta'lim darajasi va malakasi, mehnat bozorining samaradorligi, innovatsion tizim hamda intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlari kiradi. Ularning holatiga qarab, bu omillar xorijiy investitsiyalar oqimiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan bank tizimi sarmoyadorlar uchun kredit olish, hisob-kitob yuritish va risklarni boshqarish imkonini yaratadi. Qimmatli qog'ozlar bozori yetarlicha rivojlangan bo'lsa, investorlar kapitalni diversifikatsiya qilish imkoniga ega bo'ladilar. Qonunlarga asoslangan moliyaviy tizim pul aylanmasi va investor foydasining xavfsizligini ta'minlaydi. Aksincha, bank tizimi noaniq, byurokratik yoki korrupsiyalashgan bo'lsa, investor kapital xavfiga duch keladi. Valyuta bozorida erkinlikning yo'qligi esa daromadni repatriatsiya qilishda (ya'ni chet elga qaytarishda) muammolar tug'diradi.

Infratuzilma — transport, logistika, elektr energiyasi, internet, aloqa tizimlari — bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan infratuzilma mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va yetkazib berish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa investitsiya rentabelligini oshiradi. Elektr energiyasi, suv va gaz ta'minotining barqarorligi ishlab chiqarish jarayonini kafolatlaydi, zamonaviy telekommunikatsiya tizimi esa raqamli iqtisodiyot uchun muhim shartdir. Ammo infratuzilma sust rivojlangan bo'lsa — yo'llar, portlar, aeroportlar, logistika tizimi yetarlicha samarali ishlamasa — ishlab chiqarish va eksport sekinlashadi, elektr uzilishlari esa investitsiya xavfini kuchaytiradi.

Arzon, malakali va son jihatdan yetarli ishchi kuchi xorijiy sarmoyadorlar uchun katta afzallikdir. Mehnat qonunchiligining aniqligi va adolatliligi investorlar uchun huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ta'lim tizimining rivojlanganligi, oliygohlar va kasb-hunar markazlarining mavjudligi kadrlar malakasini oshiradi. Biroq mehnat bozorida malakasiz ishchi kuchining ko'pligi ishlab chiqarish sifatining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, mehnat qonunchiligining o'zgaruvchanligi yoki haddan tashqari talabchanligi investorlarni chekinishga majbur qilishi mumkin.

Innovatsion tizim va ilmiy-tadqiqot salohiyatining yuqori bo'lishi xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa texnologik va intellektual sohalarda, faol jalb etadi. Ilmiy-tadqiqot markazlari, startaplar, texnoparklar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari mavjud bo'lgan muhit texnologik kompaniyalar, shu jumladan axborot texnologiyalari, biotexnologiya va farmatsevtika sohalaridagi investorlar uchun jozibadorlikni oshiradi. Davlat tomonidan innovatsiyaga rag'bat, grantlar va subsidiyalar ko'rinishidagi qo'llab-quvvatlash investitsion risklarni kamaytiradi. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, tadqiqot va ishlanmalarni tijoratlashtirishni rag'batlantirish xorijiy texnologik sarmoyalarning jalb qilinishiga zamin yaratadi.

Shu tariqa, institutsional omillar xorijiy investitsiyalar oqimini belgilovchi strategik asos sifatida namoyon bo'ladi — ular rivojlangan sari iqtisodiy barqarorlik va investitsion jozibadorlik oshadi.

4. Tabiiy resurslar bilan bog'liq omillar. Tabiiy resurslar — neft, gaz, metallar, minerallar, o'rmon, suv, qishloq xo'jaligi yerlari va boshqa tabiiy boyliklar —

mamlakatning iqtisodiy o'sishi, eksport salohiyati hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil hisoblanadi. Biroq faqat resurslarning mavjudligi emas, balki ulardan oqilona, shaffof va samarali foydalanish imkoniyati investitsiya uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Resurslarga boy mamlakatlar energiya, qishloq xo'jaligi, sanoat va qayta ishlash sohalarida yirik hajmdagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish salohiyatiga ega bo'ladi.

Bu sohalarda faoliyat yuritishni istagan xorijiy sarmoyadorlar uchun jozibali muhit shakllanadi, chunki resurslarga yaqin joylashgan ishlab chiqarish obyekti xarajatlarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi. Masalan, neft-gaz yoki oltin konlariga yaqin hududda qayta ishlash zavodining barpo etilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish eksportni kengaytiradi, bu esa xorijiy investorlar uchun daromad manbasining barqarorligini kafolatlaydi. Tabiiy resurslarga asoslangan investitsiya loyihalari infratuzilma, transport va mehnat bozorining rivojlanishiga turtki beradi, bu esa ikkilamchi ijobiy ta'sir sifatida xorijiy kapital oqimini yanada kuchaytiradi.

Biroq, ayrim resurslarga boy mamlakatlarda iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinmaganligi, korrupsiyaning yuqoriligi va siyosiy beqarorlikning mavjudligi investorlar ishonchini pasaytiradi. Litsenziya berish jarayonlarining shaffof emasligi, resurslarning faqat mahalliy elitalar o'rtasida taqsimlanishi xorijiy sarmoyadorlar uchun adolatsiz muhitni yuzaga keltiradi. Tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar — suv tanqisligi, atrof-muhit va havo ifloslanishi — ham siyosiy va ijtimoiy risklarni oshirib, investitsiya jozibadorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, tabiiy resurslarni boshqarish bo'yicha qonunchilik yoki soliq siyosatidagi keskin o'zgarishlar investorlarni noaniqlikka duchor qiladi. Shu bois tabiiy resurslarni boshqarishda barqaror, prognoz qilinadigan va ekologik mas'uliyatli yondashuv xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun muhim omil hisoblanadi.

5. Xalqaro integratsiyalashuv bilan bog'liq omillar. Xalqaro integratsiya mamlakatning global iqtisodiyotga qo'shilishi va xorijiy kapital uchun ochiqqligini belgilaydi. Jahon savdo tashkiloti (JST) a'zosi bo'lgan davlatlar xalqaro savdo va investitsiya me'yorlariga rioya qilish majburiyatini oladilar. Bu esa xorijiy investorlarga huquqiy kafolatlar, adolatli raqobat sharoiti va barqaror muhitni ta'minlaydi. Savdo to'siqlari kamaytiriladi, tarif va notarif cheklovlar bosqichma-bosqich qisqartiriladi, bu esa eksport-import bilan shug'ullanayotgan kompaniyalar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. JST a'zoligi mamlakatning ochiqqligi va ishonchliligini ko'rsatadi, investorlar bunday davlatlarni siyosiy va iqtisodiy jihatdan barqaror hamda prognoz qilinadigan hamkor sifatida qabul qiladilar. Shu bilan birga, xalqaro a'zolik natijasida raqobat kuchayadi, bu esa qisqa muddatda mahalliy korxonalarga bosim o'tkazishi mumkin. Ammo uzoq muddatli istiqbolda bu jarayon iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshiradi.

Mintaqaviy integratsiya — masalan, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki kabi tuzilmalar — investorlarga faqat bitta

davlat emas, balki butun mintaqa bozoriga kirish imkoniyatini beradi. Erkin savdo zonalari, umumiy bojxona ittifoqlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, mehnat resurslari harakatini osonlashtiradi va ishlab chiqarish zanjirlarini integratsiyalash orqali samaradorlikni oshiradi.

Iqtisodiyotning ochiqligi import va eksportni rag'batlantiradi. Qanchalik iqtisodiyot ochiq bo'lsa, shunchalik ko'p kompaniyalar global ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilishni xohlaydi. Valyuta konvertatsiyasidagi erkinlik, dividendlarni repatriatsiya qilish imkoniyati va xalqaro moliyaviy tizimlarga integratsiya xorijiy investorlar uchun muhim rag'bat hisoblanadi. Ochiq iqtisodiyot texnologiyalar, nou-xau va yangi boshqaruv tajribalarini jalb etishda samarali bo'ladi, raqobat muhitini yaxshilaydi va mahalliy kompaniyalarni innovatsion rivojlanishga undaydi. Natijada, bu holat umumiy iqtisodiy o'sish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining barqaror oshishiga xizmat qiladi.


6. Boshqa omillar. Bevosita xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillar qatorida geografik joylashuv, turizm salohiyati, demografik holat va madaniy yaqinlik alohida o'rin tutadi.

Geografik joylashuv. Mamlakatning strategik hududda joylashuvi xorijiy sarmoyadorlar uchun katta ahamiyatga ega. Transport yo'llariga yaqin joylashuv — portlar, temir yo'llar, tranzit yo'laklari mavjudligi — logistika xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi. Masalan, O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgani sababli mintaqaviy savdo va tranzit uchun qulay geografik poydevorga ega. Bu holat uni Afg'oniston, Xitoy, Qozog'iston va Rossiya kabi yirik bozorlar o'rtasida strategik ko'priikka aylantiradi. Shu bilan birga, dengizga chiqish imkoniyatining yo'qligi logistika xarajatlarini oshiradi va tashqi bozorga chiqish xarajatlarini ko'paytiradi. Bundan tashqari, geosiyosiy xavf omillari — chegaraviy ziddiyatlar, siyosiy beqarorlik yoki sanksiyalar xavfi — investitsiya oqimini cheklashi mumkin.

Turizmning rivojlanganlik darajasi. Turizm sohasi xorijiy investitsiyalar uchun eng jozibali yo'nalishlardan biridir. Bu sohada sarmoyalar mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish va madaniy xizmatlar tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi. Turizm mamlakat imijini yaxshilaydi va sarmoyadorlar uchun "ochiq va xavfsiz" davlat sifatida ijobiy tasavvur hosil qiladi. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklari (Dubay), Turkiya va Tailand turizm orqali milliardlab dollar miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga muvaffaq bo'lgan. Shu bilan birga, faqat turizmga tayanadigan iqtisodiyot tashqi zarbalarga, jumladan pandemiyalar, siyosiy beqarorlik yoki iqlim o'zgarishlariga juda sezgir bo'ladi.

Demografiya. Aholining soni, yosh tarkibi va saviyasi bevosita investitsiya jozibadorligiga ta'sir etadi. Ishga layoqatli va yosh aholi ko'pligi mehnat bozori uchun muhim afzallikdir, chunki arzon va ko'p sonli ishchi kuchi sarmoyadorlarni jalb qiladi. Katta iste'mol bozori mavjud bo'lgan mamlakatlar — masalan, Xitoy, Hindiston yoki Indoneziya — xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun ayniqsa jozibali hisoblanadi. Shu bilan birga, aholi sonining ko'pligi malakasiz kadrlar ustun bo'lsa, mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi. Malakali ishchi kuchi, rivojlangan ta'lim

tizimi va kasbiy malaka oshirish imkoniyatlari yuqori texnologiyali sarmoyalarni jalb etishni osonlashtiradi. Ammo demografik bosim — masalan, ishsizlikning ortishi — ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirishi, bu esa investitsion riskni oshirishi mumkin.



2-rasm. Iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb qilish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi va tavsifi¹

Madaniy yaqinlik va umumiy til. Xorijiy sarmoyadorlar odatda o'zlariga madaniy va til jihatidan yaqin bo'lgan davlatlarda faolroq investitsiya qiladi. Madaniy o'xshashlik va muloqotdagi qulaylik biznes yuritishni soddalashtiradi, boshqaruvni osonlashtiradi hamda ishonchni mustahkamlaydi. Masalan, turk kompaniyalari Markaziy Osiyoda o'zlarini madaniy jihatdan yaqin his qilgani sababli faol investitsiya siyosatini yuritmoqda. Shu kabi holatlar biznes aloqalarining barqarorligini ta'minlaydi va yangi sarmoyaviy imkoniyatlarni ochadi.

Xulosa sifatida, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha tasniflash mumkin: makroiqtisodiy, siyosiy-huquqiy, institutsional, tabiiy resurslarga oid, xalqaro integratsion va boshqa (geografik, demografik, madaniy) omillar. Ushbu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ular majmuaviy tarzda mamlakatning investitsiya jozibadorligi va iqtisodiy barqarorligini belgilaydi (2-rasm).

¹Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu omillarning ta'siri har bir mamlakat va iqtisodiyot tarmog'iga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, qulay investitsiya muhitiga, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka, mulk huquqlarining ishonchli himoyasiga hamda rivojlangan ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmaga ega mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ancha katta imkoniyatlarga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi hali to'liq salohiyatini namoyon etmagan bo'lsa-da, mavjud dinamikalar mamlakatning investitsion jozibadorligi bosqichma-bosqich oshib borayotganini ko'rsatadi. 2020-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 11,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 10,4 foizni tashkil etgan. Bu o'zgarish mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori darajada saqlanib qolayotganini, shuningdek, ichki ishlab chiqarish hajmi ortib borayotganini bildiradi.

Mazkur tendensiya ikki asosiy omil bilan izohlanadi. Birinchidan, YAIMning barqaror o'sishi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirib, aholining farovonligi va hayot sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqoriligi mamlakatni o'rta daromadli davlatlar qatoridan yuqori daromadli mamlakatlar guruhiga yaqinlashtirmoqda. Bu esa xalqaro investorlarga yanada ishonchli, barqaror va istiqbolli iqtisodiy muhitni yaratmoqda.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy investitsiyalarni yanada samarali jalb etish uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir: investitsiya siyosatida prognoz qilinadiganlik va huquqiy barqarorlikni kuchaytirish, investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini raqobatbardosh darajada takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashning tizimli mexanizmlarini mustahkamlash, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish, xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlarni yaxshilash hamda moliyaviy va infratuzilmaviy modernizatsiyani kengaytirish zarur.

Shu asosda O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlar uchun yanada ishonchli, raqobatbardosh va barqaror hamkor sifatida shakllanib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish orqali iqtisodiyotning real sektorida yuqori samaradorlik va barqaror o'sishni ta'minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/8203>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4664142>
3. Денисова Т.В. и др. Инвестиции: учебное пособие для студентов направления «Экономика». – Ульяновск: УлГТУ, 2017. – С. 22.
4. Аскинадзи В.М. Инвестиции: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2019. – С. 11-12.
5. Юзвович Л.И. и др. Инвестиции и инвестиционная деятельность:

учебник. – Екатеринбург: «Урал. ун-та», 2021. – С. 400.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust PF-5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3845273>

7. O‘zbekistonda bozor xizmatlari hajmi 290,3 trln so‘mni tashkil etgan.
<https://www.uzreport.news/economy/o-zbekistonda-bozor-xizmatlari-hajmi-290-3-trln-so-mni-tashkil-etgan>

8. O‘zbekistonda 2024 yildagi inflyatsiya: narxlar qanday o‘zgardi?
<https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/03/inflation/>

9. O‘zbekistonda 2024 yilda AQSH dollar kursi qanday o‘zgardi?
<https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/29/currency/>

10. O‘zbekistonning tashqi qarzi 2024 yilda rekord darajada — 10,8 mlrd AQSH dollarga oshdi. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/01/external-debt>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**